

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17341982>

MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O‘ZGARISHLARIGA OID ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o‘g‘li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti,

To‘rtko‘l fakulteti, assistent-o‘qituvchi

Urganch davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya - maqolada mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta’minlash jarayonida sanoat tarkibiy o‘zgarishlarining o‘rni va ularni tushuntiruvchi nazariy qarashlar ko‘rib chiqiladi. Jahon iqtisodiy adabiyotida “structural change” tushunchasi ko‘pincha ishlab chiqarish resurslarini samaradorligi past tarmoqlardan yuqori texnologiyali sohalarga yo‘naltirish orqali iqtisodiy o‘rishni jadallashtirish sifatida talqin qilinadi. Kuznets va Chenery tadqiqotlarida rivojlanishning muhim sharti sifatida qayta ishlash sanoati hamda yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlarga o‘tish jarayoni alohida ta’kidlanadi. Porter, Krugman va Stiglitz nazariyalarida esa raqobatbardoshlikni kuchaytirish, ishlab chiqarishni hududiy joylashtirish va klasterlarni rivojlantirish masalalariga urg‘u beriladi. O‘zbekiston tajribasida PF-60 va PF-158 Farmonlari, PQ-306 Qarori kabi hujjatlarda sanoatning texnologik yangilanishi, klasterlarni shakllantirish va eksport salohiyatini kengaytirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Xorijiy tajribadan ko‘rinadiki, davlat siyosati va xususiy tashabbuslar uyg‘unlashgan taqdirda, qisqa muddatda barqaror o‘rishga erishish mumkin. Shu bois, O‘zbekiston hududlarida, jumladan, Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar - mintaqaviy iqtisodiyot, sanoat tarkibiy o‘zgarishlar, iqtisodiy barqarorlik, diversifikatsiya, innovatsion rivojlanish, Xorazm viloyati, tarkibiy transformatsiya.

KIRISH

Mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta’minlash masalasi bugungi kunda iqtisodiy siyosatning markazida turibdi. Mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda sanoat tarkibiy o‘zgarishlarining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish jarayoni, avvalo, ushbu tushunchalarning iqtisodiy mohiyatini aniqlashni talab etadi. Jahon iqtisodiy adabiyotida “tarkibiy o‘zgarish” (structural change) atamasi iqtisodiyotning bir tarmog‘idan boshqasiga ishlab chiqarish resurslarining qayta taqsimlanishi jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon ishlab chiqarishning texnologik bazasida, mahsulot nomenklaturasida, bozor segmentlarida va ishchi kuchi malakasida yuz beradigan chuqur o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Chunki globalizatsiya, raqamli iqtisodiyotning tez sur‘atlarda rivojlanishi, xalqaro bozorlarning keskin raqobati sharoitida faqatgina ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi barqarorlikni kafolatlab bera olmaydi. Buning uchun ishlab chiqarishning ichki tarkibini qayta ko‘rib chiqish, yuqori qo‘shilgan

qiymatli mahsulotlar ulushini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va resurslardan samarali foydalanish talab etiladi [1]. Shu nuqtayi nazardan, sanoat tarkibiy o'zgarishlari hududiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida ko'rilmoqda.

Sanoat tarkibiy o'zgarishlarining mintaqa iqtisodiy barqarorligiga ta'sirini tushunishda iqtisodiy rivojlanish nazariyalari muhim o'rin tutadi. Masalan, S.Kuznets va H.Chenery asarlarida rivojlanishning dastlabki bosqichlarida sanoatning oddiy qayta ishlash va xomashyo tarmoqlaridan yuqori texnologiyali va innovatsion tarmoqlarga o'tish jarayoni mintaqaning iqtisodiy poydevorini mustahkamlashning asosiy omili sifatida ko'rsatilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun tarkibiy o'zgarishlar faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan cheklanmasdan, balki mahsulot sifatini, qo'shimcha qiymat darajasini va resurs tejamkorligini oshirishga qaratilishi lozim. Keyinchalik Porter tomonidan ilgari surilgan "raqobat ustunligi nazariyasi"da esa mamlakat yoki mintaqaning iqtisodiy qudrati sanoat klasterlari, innovatsion ishlab chiqarish va yangi texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlangan [2].

O'zbekiston amaliy tajribasi ham bu nazariy qarashlarni tasdiqlaydi. So'nggi yillarda davlat siyosatida tarkibiy islohotlarga ustuvor ahamiyat berilib, iqtisodiyotning samaradorligini oshirish va hududiy nomutanosibliklarni yumshatishga qaratilgan hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, PF-60 va PF-158-son Farmonlarida sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni kengaytirish, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ko'paytirish kabi vazifalar belgilangan. Bu islohotlar mintaqaviy darajada iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, yangi ish o'rinlari yaratish va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda [3].

Xorijiy tajribalar ham bunday o'zgarishlarning ijobiy samarasini ko'rsatmoqda. Masalan, Janubiy Koreya qisqa vaqt ichida xomashyo eksportiga asoslangan iqtisodiyotdan yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tib, jahon bozorida raqobatbardosh davlatga aylandi. Germaniyada esa kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash, innovatsion sanoatni rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiy barqarorlikka erishildi. Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, mintaqalarda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarni to'g'ri yo'naltirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-nazariy qarashlar va amaliy chora-tadbirlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik shundan iboratki, mintaqa iqtisodiy barqarorligi faqat ishlab chiqarishning hajmiy o'sishi bilan emas, balki sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi, resurslardan samarali foydalanish va xalqaro mehnat taqsimotida raqobatbardosh o'rin egallash orqali ta'minlanadi. Shu sababli, sanoat tarkibiy o'zgarishlarini chuqur ilmiy asoslangan strategiyalar bilan uyg'unlashtirish zarur.

Sanoat tarkibiy o'zgarishlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar amaliyotda turlicha talqin qilinadi. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, sanoat strukturasi modernizatsiya qilishda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, texnologik imkoniyatlar va davlat siyosati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, sanoat tarkibiy o'zgarishlari mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. U ishlab

chiqarish samaradorligini oshirish, hududiy tafovutlarni kamaytirish, eksport salohiyatini kengaytirish va aholining ijtimoiy farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bu jarayon nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy siyosatda ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda sanoat tarkibiy o'zgarishlarining nazariy asoslari turli davrlarda ko'plab iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan. Jahon iqtisodiy adabiyotida "structural change" tushunchasi turlicha izohlangan bo'lsa-da, uning mazmun-mohiyati ishlab chiqarish resurslarini samaradorligi past tarmoqlardan yuqori texnologiyali sohalarga yo'naltirish orqali barqaror o'sishga erishish g'oyasiga borib taqaladi. Bu masalada ilk tadqiqotlardan biri bo'lgan Kuznets ishlari iqtisodiy rivojlanishning asosiy bosqichlarini ko'rsatib bergan bo'lib, unda agrar iqtisodiyotdan sanoat jamiyatiga o'tish muqarrar jarayon sifatida talqin etilgan.

Keyingi yillarda Chenery tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar esa tarkibiy o'zgarishlarning bevosita iqtisodiy o'sishga ta'sirini ko'rsatib berdi. U o'z tadqiqotlarida ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan bir qatorda, tarmoqlar o'rtasidagi ichki nisbatlarning ham iqtisodiy barqarorlik uchun muhim ekanini ta'kidlagan. Bu qarashlar keyinchalik ko'plab amaliy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, Porterning raqobat ustunligi haqidagi qarashlarida sanoat klasterlari, innovatsion ishlab chiqarish va mintaqaviy ixtisoslashuv iqtisodiy barqarorlikning muhim omillari sifatida qaraladi [2].

XX asr oxiriga kelib, yangi iqtisodiy geografiya nazariyalari ham tarkibiy o'zgarishlarning hududiy rivojlanishdagi o'rnini chuqurroq ochib berdi. Masalan, Krugman ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasi va iqtisodiy makonning samarali tashkil etilishi barqarorlikning poydevori ekanini ta'kidladi. Stiglitz esa globalizatsiya jarayonlarida tarkibiy transformatsiya iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun zarurligini alohida qayd etadi.

Sobiq ittifoq iqtisodchilari ham bu masalaga katta hissa qo'shgan. Granberg hududiy iqtisodiyot nazariyalarini ishlab chiqqan bo'lsa, Kantorovich va Nemchinov matematik modellar asosida optimal tarmoqlar tuzilishini aniqlash yo'llarini taklif etishgan. Ularning ilmiy ishlari sanoatni rejalashtirish va mintaqaviy rivojlanishni nazariy asoslashda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekistonlik iqtisodchilar ham bu borada qator tadqiqotlar olib borgan. Vohidov, Hasanov, Yusupov va boshqa olimlar hududiy iqtisodiyotda diversifikatsiya jarayonlari, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish, raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanishning ahamiyatini keng yoritishgan [4]. Ularning ishlari mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni ilmiy asoslashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy nazariyalarda sanoat tarkibiy o'zgarishlar ikki asosiy turga bo'linadi: ichki strukturaviy o'zgarishlar va tashqi strukturaviy o'zgarishlar. Ichki o'zgarishlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lsa, tashqi o'zgarishlar eksport-import tuzilmasining o'zgarishi, xalqaro bozor talablariga moslashish va global qiymat

zanjirlarida ishtirok etishni kengaytirish bilan bog'liqdir.

Xorijiy tajribaga nazar tashlasak, Janubiy Koreya, Germaniya va Polsha misolida ko'rish mumkinki, sanoat tarkibiy o'zgarishlari mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu mamlakatlarda davlatning strategik siyosati va xususiy sektor tashabbuslari uyg'unlashib, qisqa vaqt ichida iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga chiqishga imkon bergan. O'zbekiston uchun ham bu tajribalar amaliy ahamiyat kasb etib, tarkibiy o'zgarishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun ilmiy asos va yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda sanoat tarkibiy o'zgarishlarining o'rnini ochib berish uchun bir nechta ilmiy yondashuv va uslublardan foydalanildi. Avvalo, ilmiy-nazariy tahlil usuli yordamida jahon va mahalliy adabiyotlarda keltirilgan qarashlar o'rganildi, iqtisodchilarning sanoat transformatsiyasi haqidagi fikrlari solishtirildi. Masalan, Kuznetsning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari haqidagi qarashlari, Porterning raqobat ustunligi nazariyasi va Krugman tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiy geografiya yondashuvlari chuqur tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichda qiyosiy tahlil usuli qo'llanib, O'zbekistonning sanoat tarkibiy o'zgarishlarini Janubiy Koreya, Germaniya va Polsha kabi davlatlar tajribasi bilan solishtirish amalga oshirildi. Bu usul hududiy rivojlanishda qanday mexanizmlar samarali ishlashini ko'rsatish imkonini berdi. Masalan, Janubiy Koreya tajribasida davlat siyosati va xususiy sektor tashabbuslarining uyg'unligi, Germaniya sanoatida "Mittelstand" modelining samaradorligi va Polsha iqtisodiyotida Yevropa Ittifoqi fondlaridan foydalanish jarayonlari alohida o'rganildi[5].

Shuningdek, tadqiqotda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida so'nggi yillarda sanoat tarmoqlarining rivojlanish dinamikasi, tarmoqlar ulushi va mintaqalar kesimidagi tafovutlar o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar asosida jadval va grafiklar tuzilib, tarkibiy o'zgarishlarning real ko'rinishi aks ettirildi.

Yana bir muhim usul sifatida induksiya va deduksiya yondashuvlaridan foydalanildi. Avval alohida tarmoqlar misolida tarkibiy o'zgarishlarning xususiyatlari o'rganilib, keyin umumiy xulosalar chiqarildi. Aksincha, umumiy nazariy qarashlar asosida mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillar aniqlanib, Xorazm viloyati misolida amaliy jihatdan tekshirildi.

Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarini yanada ishonchli va ilmiy asoslangan qilishga yordam berdi. Shu tariqa, nazariy va amaliy jihatlarining uyg'unlashuvi mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda sanoat tarkibiy o'zgarishlarining o'rni va ahamiyatini kengroq yoritish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash nuqtayi nazaridan sanoat tarkibiy o'zgarishlar nafaqat ishlab chiqarish hajmlarining oshishi, balki iqtisodiyotning texnologik tuzilmasining takomillashuviga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, resurslardan samarali

foydalanish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tizimlarini yaratish - bularning barchasi mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy elementlari sifatida qaraladi.

O'zbekiston hududlarida, jumladan, Xorazm viloyatida oxirgi yillarda sanoat tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu jarayon iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va ijtimoiy farovonlikni yaxshilashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2024-yillar davomida viloyat sanoatida oziq-ovqat, to'qimachilik, mashinasozlik va kimyo tarmoqlarining ulushi oshgan, ba'zi past samarali tarmoqlar esa qisqargan.

1-jadval.

Xorazm viloyati sanoat tarmoqlarining ulushi (2020–2024,%)

Tarmoqlar	2020-yil (%)	2024-yil (%)
Oziq-ovqat sanoati	35	40
To'qimachilik sanoati	25	30
Mashinasozlik	8	12
Kimyo sanoati	7	11
Boshqa tarmoqlar	25	7

Masalan, oziq-ovqat sanoati ulushi 35 foizdan 40 foizgacha, to'qimachilik sanoati 25 foizdan 30 foizgacha, mashinasozlik 8 foizdan 12 foizgacha, kimyo sanoati esa 7 foizdan 11 foizgacha ko'tarilgan. Shu bilan birga, "boshqa tarmoqlar" ulushi 25 foizdan 7 foizgacha kamaygan. Bu o'zgarishlar resurslarning samarali taqsimlanishi va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarga talabning ortib borishi bilan bog'liqdir [6].

Mashinasozlik va kimyo sanoatining ham ulushi oshib borayotgani hududiy iqtisodiyotda texnologik transformatsiyaning kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Masalan, mashinasozlikning ulushi 2020-yilda 8 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 12 foizga yetdi. Kimyo sanoati esa 7 foizdan 11 foizga ko'tarildi. Bu o'zgarishlar yangi investitsiyalar, texnologik yangilanish va klasterlash jarayonlari natijasida yuzaga keldi. Xususan, Hazorasp erkin iqtisodiy zonasida tashkil etilgan korxonalar kimyo va mashinasozlikni rivojlantirishda yetakchi rol o'ynamoqda.

Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat ishlab chiqarishi asosan Urganch shahri, Tuproqqal'a va Hazorasp tumanlarida jamlangan. Masalan, Tuproqqal'a qurilish materiallari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Urganch shahri oziq-ovqat va to'qimachilik markazi sifatida ajralib turibdi, Hazorasp esa kimyo va mashinasozlikning asosiy hududiga aylangan. Boshqa tumanlarda esa hunarmandchilik va kichik qayta ishlash korxonalari ustunlik qilmoqda.

2-jadval.

Xorazm viloyati tumanlari bo'yicha sanoat ixtisoslashuvi

Hudud	Sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd so'm	Ulushi (%)	Asosiy yo'nalishlar
Tuproqqal'a	14 103,2	40,8	Qurilish materiallari, qayta ishlash

Urganch sh.	10 586,4	30,6	Oziq-ovqat, to'qimachilik
Hazorasp	3 447,5	10,0	Kimyo, mashinasozlik
Xiva	1 532,8	4,4	Oziq-ovqat, hunarmandchilik

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sanoatning asosiy qismi 2-3 ta yirik hududda to'plangan bo'lib, bu hududiy tafovutlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli kichik tumanlarda ham sanoatni diversifikatsiya qilish, logistika infratuzilmasini yaxshilash va innovatsion ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish talab etiladi [6].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar mehnat bozoriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. 2020–2024-yillar davomida sanoat korxonalarida band bo'lganlar soni 16 foizga oshgan, o'rtacha ish haqi esa 1,4 baravar ko'tarilgan. Bu esa sanoatning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamlashga xizmat qilayotganini anglatadi [6].

Yana bir muhim jihat – eksport salohiyatining oshishi. Xorazm viloyatida so'nggi yillarda to'qimachilik mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari va kimyo sanoati mahsulotlari eksporti kengayib, viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalari mustahkamlanmoqda. Bu esa mintaqaning nafaqat ichki, balki xalqaro bozorlarda ham raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda[7].

Umuman olganda, tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy barqarorlikning asosiy drayveriga aylanmoqda. U ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, hududlararo tafovutlarni kamaytirish, eksport salohiyatini kengaytirish va aholining ijtimoiy farovonligini yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois kelgusida bu jarayonlarni izchil davom ettirish va ularni xalqaro tajribaga moslashtirish muhimdir.

MUXOKAMA

O'zbekiston iqtisodiy siyosatida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar jarayonini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu jarayonning natijalari bir tekisda kechmayapti. Xorazm viloyati misolida ko'rilsa, ayrim tumanlarda sanoat salohiyati jadal rivojlanayotgan bo'lsa, boshqa hududlarda o'sish sekinroq sur'atda amalga oshmoqda. Bu holat hududiy tafovutlar masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Mavjud tafovutlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda tarkibiy o'zgarishlarning nafaqat hajmi, balki sifati va samaradorligi ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Muxokama shuni ko'rsatadiki, tarkibiy transformatsiya faqat sanoat hajmini kengaytirish emas, balki yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash bilan ham bog'liqdir. Masalan, Xorazm viloyatida paxtachilik asosidagi xomashyo eksportidan tayyor mahsulot – kiyim-kechak va to'qimachilik buyumlari ishlab chiqarishga o'tish barqarorlik uchun ijobiy natija berdi. Ammo bu jarayonning yanada samarali kechishi uchun logistika infratuzilmasi, eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlari va texnologik yangilanish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Shuningdek, muhokama qilingan natijalar xalqaro tajribalar bilan taqqoslanganda, ayrim umumiyliklar bilan bir qatorda farqlar ham mavjudligini ko'rsatadi. Germaniya va Janubiy Koreya tajribasida sanoat tarkibiy o'zgarishlari

asosan xususiy sektor tashabbuslari va davlat tomonidan yaratilgan qulay sharoitlar asosida tez sur'atlarda amalga oshirilgan. O'zbekistonda esa, aksincha, hozircha tarkibiy o'zgarishlar asosan davlat tashabbuslari asosida olib borilmoqda. Bu, albatta, dastlabki bosqichda muhim natijalar berishi mumkin, biroq uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun xususiy sektorning faol ishtiroki ta'minlanishi zarur.

Muxokama jarayonida yana bir muhim jihat shundaki, tarkibiy o'zgarishlarning mehnat bozoriga ta'siri. Xorazm viloyatida sanoat tarmoqlarining kengayishi natijasida bandlik ko'rsatkichlari yaxshilandi, yangi ish o'rinlari yaratildi, o'rtacha ish haqi oshdi. Shu bilan birga, kadrlar malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni egallash va innovatsion yondashuvlarni joriy etish hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu jihatdan ta'lim tizimi bilan sanoat tarmoqlari o'rtasidagi integratsiyani mustahkamlash, "dual education" tajribasini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Muhokamadan yana shunday xulosa qilish mumkinki, sanoat tarkibiy o'zgarishlari hududiy barqarorlikni ta'minlashda keng qamrovli va ko'p yo'nalishli ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, iqtisodiy barqarorlik ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyatining ortishi bilan ta'minlansa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy barqarorlik aholining bandligi, daromadlari va turmush darajasining yaxshilanishi orqali mustahkamlanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sanoat tarkibiy o'zgarishlar jarayonida resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishning texnologik darajasini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan ishlab chiqarish modelini tatbiq etish, energiya tejankor texnologiyalarni keng qo'llash va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bu bo'limda tahlil qilingan jihatlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda, jumladan, Xorazm viloyatida tarkibiy transformatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish, ularni xalqaro tajribaga moslashtirish va mahalliy sharoitlarga mos yo'naltirish mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib qoladi.

XULOSA

O'zbekiston hududlarida, jumladan Xorazm viloyatida olib borilayotgan tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash yo'lida muhim bosqich bo'lib xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda sanoat tarmoqlarining ichki nisbatlari o'zgarib, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuv kuchaymoqda. Oziq-ovqat, to'qimachilik, kimyo va mashinasozlik sohalarining ulushi oshib borayotgani hudud iqtisodiy salohiyatining kengayishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va aholining daromadlari ortishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, ayrim tumanlarda sanoatning past darajada rivojlanib qolayotgani hududiy tafovutlarni yuzaga keltirmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun kichik tumanlarda sanoatni diversifikatsiya qilish, investitsiya va innovatsion loyihalarni kengaytirish, transport va logistika infratuzilmasini yaxshilash talab etiladi. Bunday choralar amalga oshirilganda, mintaqa iqtisodiyoti yanada muvozanatli

rivojlanadi va ijtimoiy tenglik mustahkamlanadi.

Mintaqa iqtisodiy barqarorligini rivojlantirishda sanoat tarkibiy oʻzgarishlarining ilmiy-nazariy asoslarini umumlashtirar ekanmiz, ularning ahamiyati ikki asosiy yoʻnalishda namoyon boʻlishini koʻramiz. Birinchisi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan taʼminlash orqali ichki iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash; ikkinchisi, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish va eksport salohiyatini oshirish orqali tashqi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash.

Xalqaro tajribalar koʻrsatadiki, tarkibiy oʻzgarishlar muvaffaqiyatli kechishi uchun davlat siyosati va xususiy sektor tashabbuslari bir-birini toʻldirishi lozim. Oʻzbekiston uchun ham bu yoʻnalishda davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar bilan bir qatorda tadbirkorlik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash, yangi texnologiyalarni joriy etish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish dolzarbdir.

Umuman olganda, sanoat tarkibiy oʻzgarishlari iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, hududiy farqlarni kamaytirish va xalqaro bozorda raqobatbardosh iqtisodiy modelni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biridir. Bu jarayon Oʻzbekiston mintaqalarida barqaror oʻsishni taʼminlash va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda asosiy poydevor vazifasini oʻtaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Kuznets S. Modern Economic Growth: Rate, Structure, and Spread. – New Haven: Yale University Press, 1966. – 529 p.
2. Porter, M. The Competitive Advantage of Nations. – New York : Free Press, 1990. – 855 p.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-60-son Farmon “2022–2026-yillarga moʻljallangan Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” // Lex.uz. – 2022. – URL: <https://www.lex.uz>
4. Vohidov A., Hasanov M., Yusupov B. *Hududiy iqtisodiyot va sanoatni diversifikatsiya qilish*. – Toshkent: Fan, 2022.
5. Rodrik, D. Industrial Policy for the Twenty-First Century. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2023. – 72 p.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari. – www.stat.uz (2024).
7. Ergashev Sh. Raqamli iqtisodiyot va sanoatni diversifikatsiya qilish. – Toshkent: Innovation Press, 2024. – 214 b.